

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti


«Iqtisodiyot» kafedrası

5140900 – Kasb ta'limi (5340100-Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)
yonalishi uchun) ta'lim yo'nalishi

4 kurs 405 guruh talabasi

Hojimirzayeva Dilrabo

БИЖИРУВ МАЛАКАЛARI QISH



Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi turmush sharoitlarini yaxshilanishi.

Namangan - 2011 yil

Мундарижа

Kirish	3-7
I 6o6.. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatining nazariy asoslari	8-24
1.1. Aholini ijtimoiy himoyasida davlat moliyasining tutgan o'rne	8-15
1.2. Aholi daromadlari va turmush sifatini oshirishda byudjet siyosatining ahamiyati.....	16-20
1.3. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida byudjet xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar	21-24
II 6o6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturlarida aholi ijtimoiy himoyasining ustivor yo'nalishlari	25-55
2.1. Inson manfaatlari – byudjet siyosatining eng muhim maqsadi sifatida.....	25-34
2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar	34-47
2.2. Aholi o'rtasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlashda davlat byudjetning o'rne	47-55
III 6o6. “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini o'qitishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish	56-66
3.1. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning umumiy tavsifi.....	56-60
3.2. “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini ma'ruza mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish.....	50-63
3.3. Amaliy mashg'ulotda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish..	63-66
Xulosa	67-72
Фойдаланилган адабиётлар	73-80

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy himoya tamoyili asosida aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida **maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish** masalalariga katta e'tibor qaratildi. Masalan, faqatgina «Homiylar va shifokorlar yili» dasturida ko'zda tutilgan tadbirlar ijrosi uchun qariyb 284 mlrd. so'm, jumladan, 133 mlrd. so'm byudjet mablag'i, 151 mlrd. so'mdan ziyod idora va tashkilotlar, homiylar mablag'i sarflangani ham shundan dalolat beradi.

«Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida barcha manbalar hisobidan jami 483600 mln. so'm, jumladan, 213200 mln. so'm byudjet mablag'i, 270400 mln. so'm miqdorida grantlar, ijrochilar hamda homiylar mablag'i sarflandi;

- 15 ta maxsus maktab-internat va «Mehribonlik» uylarida jami 4800 mln. so'mlik qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi;

- davlat byudjetidan 4600 mln. so'mga yaqin mablag' sarflanib, 28 ta «Mehribonlik» uyi hamda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatga 114 ta zamonaviy avtobus, 4 ta oilaviy bolalar uyiga «Damas» mikroavtobusi berildi;

- yosh oilalarning muammolarini yechish, avvalo, uy-joy sotib olish va imorat qurish, ro'zg'orni butlashga ko'maklashish maqsadida tijorat banklari tomonidan 57500 mln. so'mlik ipoteka va iste'mol kreditlari ajratildi va h.k.¹Bu borada Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov: "Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish qaqi va umuman, pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda"².

Birgina 2010 yilda budjet sohasi muassasalari xodimlarining ish qaqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori 32 foizga, aholining umumiy pul daromadlari esa jon boshiga 1,3 barobar oshdi.

Aholining daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad ulushi tobora salmoqli o'rin egallamoqda va barcha daromadlarning 47 foizdan ortig'i ushbu soha qissasiga to'g'ri kelmoqda.

SHuning uchun byudjet tizimida olib borilayotgan islohotlarda davlat va mahalliy byudjetlarni aholini ijtimoiy himoyasi xarajatlarini oqilona tarzda rejalashtirish, ta'lim tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy xarajatlarning samaradorlik masalalariga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Ma'lumki, respublika va mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ham egadir, chunki ular aholining hamma qatlamlariga daxldor va mehnat resurslarining bo'lajak sifatini shakllantiradi. SHuning uchun insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratib berilishi ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadidir. Bu jarayonni amalga oshirishda davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirini samarali boshqarish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

SHubhasiz bu jarayonda davlat moliyasi va byudjet xarajatlarini takomillashtirish, uning samaradorligini ta'minlashda kabi masalalar o'z yechimlarini topishi zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat va mahalliy byudjetning davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati ularni samarali boshqarishning iqtisodiy ahamiyati va undagi muammolarni hal yo'llariga oid masalalar mamlakatimizning yetakchi moliyachi-iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Bu borada, A.Vahobov, G.Qosimova, M.SHarifxo'jaev, A.O'lmasov, Z.Sirojiddinova, D.G'oziev, H.Jamolov, B.Turobov tadqiqotlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ayni paytda, davlat va mahalliy byudjetlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi iqtisodiy ahamiyati va uning samaradorligini oshirish hamda

¹ Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007 yil 8 dekabr

² Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. – Xalq so'zi, 2011 yil, 22 yanvar.

mahalliy byudjetlar ijtimoiy xarajatlarini samarali boshqarishning iqtisodiy ahamiyati borasidagi muammolarni hal etilish yo'llarini bir qator masalalarini o'rganib chiqilishi va yoritilishi lozim.

Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lib aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat byudjetining ahamiyatini oshirish va samarali tashkil etishda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflarni kiritish va uni rivojlantirish yullarini izlab topishdan iborat.

Yuqorida qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqotning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va unda davlat byudjetining o'rnini ochib berish;

- ijtimoiy hayot va ma'naviyatning yuksalishida davlat tadbirlarining ahamiyatini yoritish

- aholi farovonligini yuksaltirish byudjet siyosatining muhim yo'nalishi sifatida

- islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida byudjet xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar mohiyatini tavsiflash;

- inson manfaatlari – byudjet siyosatining eng muhim maqsadi sifatidagi o'rnini tahlili olib borish;

- iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar tahlili o'tkazish;

- iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlarni tadqiq etish;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarning umumiy tavsifi berish;

- “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini ma'ruza mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish metodini ishlab chiqish

- amaliy mashg'ulotda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazishni tashkil etish

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib aholi ijtimoiy himoyasini tashkil shu jaraenda mavjud bo'lgan muammolar va rivojlantirish yullari hisoblanadi .

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari bo'lib aholi ijtimoiy himoyasini tashkil etishga va ularni boshqarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezidentning farmonlari va ilmiy asarlari, xorijiy va uzbekistonlik olimlarni ilmiy izlanishlari, statistik materiallari va axborot vositalarning ma'lumotlari hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotni o'tkazish natijalari bo'yicha ishlab chikilgan takliflardan oliy ta'lim muassasalari va kollejlarda iqtisodiy bilimlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Undan tashqari tadqiqotda mavjud bo'lgan materiallar o'quv jarayonida “Davlat byudjeti”, «Moliya», « fanlarini o'qitishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabietlar ruyxati va ilovalardan iborat.

Kirish kismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoni o'rganilganlik darajasi, ob'ekt va predmeti, nazariy va uslubiy asoslari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, tuzilishi ko'rsatib utilgan.

Birinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatining nazariy asoslari va aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar ochib berilgan.

Ikkinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturlarida aholi ijtimoiy himoyasining ustivor yo'nalishlari tahlil etilgan.

Uchinchi bobda “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati” mavzusini o’qitishni ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samaradorligini oshirish bo’yicha aniq takliflar keltirilgan.

Xulosa qismida tadqiqot natijalari bo’yicha asosiy xulosa va takliflar keltirilgan.

I bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasining aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatining nazariy asoslari

1.1. Aholini ijtimoiy himoyasida davlat moliyasining tutgan o’rni

Ijtimoiy siyosat O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonuniy hujjatlar bilan belgilab quyilgan fuqarolarning ijtimoiy huquq va kafolatlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2007 yil «Ijtimoiy himoya yili» deb e’lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash, turmush darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasi bo’ldi.

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat Dasturida aholini ijtimoiy himoyalashni ta’minlashga qaratilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish ustuvor yo’nalish qilib belgilangan.

- aholi nochor qatlamlarining turli toifalariga, birinchi galda yolg’iz keksa fuqarolar, nogironlar, boquvchisini yo’qotgan balog’atga yetmagan bolalarga ko’rsatiladigan ijtimoiy yordam normalari va stavkalarini maqbullashtirish;

- keksalar va nogironlar uylarini, bolalar uylarini hamda kasalliklarga chalingan bolalar uchun internatlarni, urush va mehnat faxriylari uchun davolash muassasalarini ta’minlashga sarflanadigan Me’yoriy moddiy xarajatlar miqdorini maqbullashtirish;

- 2 yoshgacha bolalari bo’lgan onalarga, ko’p bolali va kam ta’minlangan oilalarga mahalla ko’mitalari tomonidan ko’rsatiladigan moddiy yordam va ijtimoiy miqdorlarini qayta ko’rib chiqish;


- «Mehribonlik» uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika bazasini mustaxhamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e’tiborni yanada kuchaytirish, «Sen yolg’iz emassan» insonparvarlik shiorini hayotga amaliy joriy etilishini ta’minlash;

- aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish, nochor oilalar, nogironlar va yolg’iz keksalarga aniq va samarali ijtimoiy yordam ko’rsatishni oshirish, ularning ehtiyojlarini yanada to’liq qondirilishini ta’minlash, ularga moddiy yordam va ma’naviy madad ko’rsatish, aholini ijtimoiy ko’llab-kuvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahallaning rolini kuchaytirish;

2. «Mehribonlik», «Saxovat» va «Muruvvat» uylarining ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimi

xodimlari mehnatini rag'batlantirish va munosib baholash mexanizmini anada takomillashtirish;

- yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, yosh oilalar mustaqil hayotga qadam ko'yishida ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish yo'li bilan ko'llab-quvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish.



himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lib aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ko'llab-quvvatlash qaratilgan islohotlarning davomi hisoblanadi. Mazkur farmon aholini ijtimoiy himoya qilish yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali ko'llab-quvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

1-jadval

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Ishlab chiqarish sohasida:	Iste'mol sohasida	Ijtimoiy himoya sohasida:
<ul style="list-style-type: none"> • ish bilan bandlikning yuqori darajasiga erishish; • xususiylashtirish va ommaviy ravishda davlat tasarrufidan chiqarish tadbirlari amalga oshirilayoganda mehnat jamoalari manfaatlariga rioya qilish; • ilgari o'rnatilgan mehnat aloqalarini saqlash; • kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish. • Daromadlarni taqsimlash va qaytataqsimlash sohasida: • ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalarning minimal miqdorini belgilash; 	<ul style="list-style-type: none"> • ichki iste'mol bozorini himoyalash; • iste'mol mollari yetkazib berishni rag'batlantirish; • tovarlar erkin almashuviga sharoit yaratish; • asosiy iste'mol mollari ishlab chiqarish darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik; • yuqori kaloriyali oziq-ovqat iste'moli mahsulotlari tarkibini takomillashtirish; • ijtimoiy xizmat iste'moli darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik 	<ul style="list-style-type: none"> • oilaga dahldor nafaqalarni belgilash; • aholini maqsadli ravishda ijtimoiy himoyalash; • kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqaly ajratish; • aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari mablag'larini jalb etish.

• daromadlarni kam ta'minlangan fuqarolar foydasiga taqsimlash	choralarini ko'rish.	
--	----------------------	--

Bu tadbirlarni amalga oshirishga davlat byudjeti hisobidan 31,5 mlrd. so'm mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy himoya yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish faoliyatida qanday qatnashishga qaramasdan, aholining ma'lum tabaqalarini turmush darajasini yaxshilash amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda respublikamizda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

1. Bolali oilalarga nafaqalar: - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa;
• bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; - bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa; - Voyaga yetmagan bolalari bor oilalarga nafaqa.

2. Ijtimoiy nafaqalar: - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga; - ish staji yo'q qariyalarga; - boquvchisini yo'qotgan oilalarga.

3. Ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash: - qariyalar va nogironlar uylari; - mehribonlik uylari - kasalmand bolalar uchun internatlar.

4. Turli imtiyozlar: - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish; - sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash; - protezlash; - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar.

5. Kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar: - ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

2-jadval

Ijtimoiy soha xarajatlarining tarkibi

Ijtimoiy xizmat sohasi	Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy sug'rta
Ta'lim	16 yoshgacha bolalari bulgan oilalarga nafaqa	Pensiya sug'rtasi
Madaniyat	Ishlamaydigan onalarga bola 2 yoshgacha parvarishlash uchun tulanadigan nafaqa	Ishsizlik bo'yicha sug'rta
Fan	Ishlaydigan onalarga bola 2 yoshgacha parvarishlash uchun tulanadigan nafaqa	Mexnat kilish qobiliyatini yuqotganlik bo'yicha sug'rta
Sog'likni saqlash	Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam	Tibbiy sug'rta
Jismoniy tarbiya	CHernobil xalokati oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari	
Ijtimoiy ta'minot	Stipendiya	
Bandlik xizmati	Ishsizlik nafaqasi	

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan: - bolali oilalarga nafaqalar; - keksalar va nogironlar uyidagilarni boqish va xizmat ko'rsatish; - nogironlarni mehnatga o'rgatish, ishga joylash, protez qo'yish; - CHernobil' AESdagi falokatda qatnashganlarga, nogironlarga moddiy yordam beriladi.

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mahalla tizimi orqali byudjetdan moliyalashtirish quyidagi asosiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turlari amalga oshiriladi: kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar,

bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar.

Kam taminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi. Kam taminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar respublika byudjeti mablag'lari, mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalar va xo'jaliklarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar) mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Mablag'lar qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari o'zini - o'zi boshqarish organlarining jamg'arma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus schyotlariga o'tkaziladi va olib qo'yilmaydi.

Har oylik moddiy yordam miqdori amaldagi eng ish haqining 1,5 dan 3 baravarigacha miqdorida belgilanadi. Moddiy yordam to'lash muddati tugaganda, yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda yoki doimiy yashash joyi o'zgargan hollarda moddiy yordam to'lash to'xtatiladi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ular davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi "250" bo'limi, "5" paragrafi, "03" xarajatlar turi, "4" ob'ekti, "25" kichik ob'ekti bo'yicha aks ettiriladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagilarga tayinlanadi:

- ishlamaydigan onalarga yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga (odatda ota, o'g'il qilib oluvchi, vasiy yoki boshqa qarindoshlarga);

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus va o'rta hunar o'quv yurtlarida pulli-kontrakt asosida o'qiydigan onalar yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga;

- yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi onalarga (ona o'rnini bosadigan shaxslarga), shuningdek faoliyatni yuridik shaxsni tashkil etmasdan amalga oshiradigan dehqon xo'jaliklari a'zolariga.

Bolani parvarish qilish nafaqasi har oyda, parvarish qilinadigan bolalar sonidan va mazkur nafaqani oladigan shaxsning mehnat stajidan qat'i nazar amaldagi eng kam ish haqining 200 % i miqdorida to'lanadi.

Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa byudjet tashkilotlarida (muassasalarida) ishlayotgan (ishlab chiqarishdan ajralgan xolda o'qiyotgan, bunga pullik-kontrakt asosida o'qiyotganlar kiritilmaydi, xizmatni o'tayotgan) onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Bu xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi xarajatlar turi "03", hisobi "4", analitik hisobi "20" da ko'rsatiladi. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslarga) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha onalarga beriladigan nafaqalar parvarish kilinayotgan bola ikki yoshga to'lganda, bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go'daklar uyiga) to'liq davlat ta'minotiga joylashtirilganda, bola vafot etganda, oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqariga chiqib ketgan hollarda to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 1996 yil 10 dekabrda PF-1657-sonli va "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida" 2002 yil 25 yanvardagi PF-3107-sonli Farmonlariga muvofiq 16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablarida, akademik

litseylarda va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa beriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha ("umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha") bolalari bo'lgan oilalarga beriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa:

- bir bolali oilalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 % i miqdorida;
- ikki bolali oilalar uchun - 100 % i miqdorida;
- uch bolali oilalar uchun - 140 % i miqdorida;
- to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun - 175 % i miqdorida belgilanadi.

Nogiron bolali oilalar; ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar; bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar; ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, mehnat birjasida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar mablag'lari hamda byudjetdan tashqari manbalar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Respublikamizda to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek transportda yurish kartochokalari bilan ta'minlanadi.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ularga barcha turdagi umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganda va ishga joylashayotganda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar amaldagi eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorida, eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravarigacha miqdorda pul nafaqasi ham beriladi.

Nafaqalar ta'lim muassasalarining bitiruvchisiga ta'lim muassasasini bitirib ishga joylashayotganida bir marta beriladi. Agar ushbu muassasalarning tarbiyalanuvchisi 9-sinfni bitirib, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga, 11-sinfni bitirib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirsa, unda bitiruvchi har ikki nafaqani ushbu ta'lim muassasasida o'qishni tugatgandan so'ng shu muassasalardan oladi. To'lanadigan nafaqalar va pul nafaqalari uchun qilinadigan xarajatlar miqdori ular tarbiyalanayotgan ta'lim muassasalarining yoki o'qishni davom ettirayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning xarajatlar smetasida byudjet xarajatlari iqtisodiy tasnifi bo'yicha 03-4-90-modda "Uy xo'jaliklariga boshqa transfertlar" moddasi bo'yicha aks ettiriladi.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan, umumta'lim maktablari, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qiyotgan to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar o'qiydigan ta'lim muassasasi yashash joyidan 3 kilometrda ziyod masofada joylashgan bo'lsa, ular jamoat transporti va o'quvchilar uchun transportda imtiyozli yurish kartochokalari muomalada bo'lgan shahar va aholi punktlarida imtiyozli transportda yurish kartochokalari yoki transportda imtiyozli yurish huquqini beruvchi boshqa turdagi kartochoyka beriladi.

1.2. Aholi daromadlari va turmush sifatini oshirishda byudjet siyosatining ahamiyati

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada

pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi. Aholi daromadlari – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'im va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir.

Aholi daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmog'i sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy tuzilishi ham takomillashib boradi (2-rasm).


Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Aholi pul daromadlari – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

Natural daromad – mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.



2-rasm. Aholi pul daromadlarining tarkibiy tuzilishi

Ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o'sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog'liq. Aholining real daromadlari 2009 yil davomida 26,5 foizga ko'paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'sishi 2009 yilda o'rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdig'idir.


So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2009 yilda 2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

2010 yilda ham ish haqini kamida 30 foizga, real daromadlarni esa 23 foizga oshirish mo'ljallanmoqda. Aholining uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan sanoat tovarlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlari sezilarli darajada o'sdi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush


farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi hamda ular o'rtasidagi nisbat ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar, majburiy to'lov va badallar, omonatlar, qimmatli qog'ozlar, qat'iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi (3-rasm).




uning o'lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

Turmush sifati ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi (4-rasm).



100-140 dollar, O'zbekistonda esa 30 dollar narx belgilangan.

SHuningdek, mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach aholi uy-joy va xonadonlarini gazlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda (5-rasm). Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarni gaz bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasida tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berilmoqda.



5-rasm. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlanishi

Buning natijasida 2010 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanganlik darajasi shahar joylarida 85 foizni, qishloq joylarida esa 78,7 foizni tashkil etdi. SHu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

Aholining iste'mol buyumlari bilan ta'minlanganlik va real daromadlari hajmining o'sishini ular jamg'armalari, xususan moliyaviy muassasalardagi omonatlari miqdorining oshishi orqali ham kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholining kredit tashkilotlaridagi omonatlari qoldig'i 2009 yil davomida 1 trln. 190,4 mlrd. so'mga yoki 69,1 foizga oshib, 2010 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 2 trln. 914,2 mlrd. so'mni, shu jumladan tijorat banklarida – 2 trln. 749,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Demak, 2009 yilning o'zida aholining tijorat banklaridagi omonati 1,7 barobar oshganligi uning real daromadlari o'sib borayotganligidan darak beradi.

1.3. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida byudjet xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qarorining qabul qilinishi byudjet tizimi xarajatlarini isloh qilish sohasida 2000 yildan so'ng burilish davrini boshlab berdi. Mazkur qarorga asoslangan holda 2000 yildan boshlab byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibining butunlay yangi tartibi joriy kilindi. Unga binoan byudjet tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi kengaytirildi, byudjetdan moliyalashtirish mexanizmi soddalashtirildi, byudjet tashkilotlari xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha zaruriy erkinliklar belgilandi.

Undan tashqari byudjet xarajatlarini moliyalashtirishda soddalashtirilgan xarajatlar tasnifi amaliyotga tatbiq etildi, byudjet tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish manbalari aniqlab berildi, byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasini tuzish yo'lga qo'yildi va undan foydalanish tartibi belgilandi, ularning byudjetdan tashqari topgan daromadlari

ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan edi va hozirda mazkur imtiyoz har yili uzaytirib kelinmoqda.

3 - jadval

Davlat byudjetining xarajatlari tarkibi

(YaIMga nisbatan %da)

No	Ko'rsatkichlar	2003 y	2008 y	2009 y	2010
1.	Maqsadli fondlarsiz xarajatlar	22,6	21,7	22,4	22,8
1.1	Ijtimoiy sohaga	11,3	11,9	12,3	13,4
1.2	Ijtimoiy himoyaga	1,4	1,7	2,2	2,4
1.3	Iqtisodiyot uchun xarajatlar	2,9	2,5	2,7	2,6
1.4	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	2,25	1,63	1,7	1,4
1.5	Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlariga xarajatlar	0,6	0,5	0,6	0,6
1.6	Boshqa xarajatlar	5,3	5,0	4,9	4,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari.

Moliyalashtirishning yangi tartibiga o'tishning birlamchi yakunlari bo'yicha shuni aytish mumkinki, berilgan imtiyoz va huquqlar byudjet tashkilotlarining qo'shimcha daromad manbalarini topish va byudjet mablag'laridan oqilona va tejimli foydalanish yuzasidan manfaatdorligini keskin oshirdi, hamda kreditor qarzlarning sezilarli kamayishiga olib keldi. Davlat byudjetining xarajatlari bo'yicha ijrosiga to'xtalib, avvalambor, inflyatsiya darajasining pasayishi, valyuta ayirboshlash kursining barqarorlashuvi hamda ijtimoiy qo'llab - quvvatlashning manzilliligini yanada oshirish natijasida 2009-2010 yillarda byudjet xarajatlari miqdori nisbatan kamayishi kuzatildi (25,8 % dan 22,9 % gacha 3 – jadvalga qarang).

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalashga qilinadigan xarajatlarning salmog'i YaIMga nisbatan asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy soha xarajatlarning YaIM tarkibidagi salmog'i

(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2006	2007	2008	2009	2010
– jami	100	100	100	100	100
Xarajatlar, maqsadli jamg'armalarsiz – jami	69,6	67,8	65,1	64,4	65,2
Jumladan:					
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari	36,4	36,7	35,0	36,4	38,3

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarning yetakchi o'rni 2010 yilda ham saqlab qolindi va bu jami byudjet xarajatlarning 45,9 % ini tashkil etdi. 2007 yili "Ijtimoiy himoya yili" deb kabul qilinishi munosabati bilan bu ijtimoiy soha xarajatlari davlat xarajatlari tarkibida 54,1 % ni tashkil etishi kutilmoqda. Bu albatta, davlat byudjetning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatining ustuvor ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur xarajatlar asosan ta'lim, sog'liqni sag'lash, aholini ijtimoiy himoyalash, sport va ommaviy axborot tizimlarini moliyalashtirish, ilm-fan va madaniyat sohalari bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning chuqurlashuvi va ijobiy institutsional o'zgarishlar 2006 yil davlat byudjetining muvaffaqiyatli ijrosini ta'minladi va 2010 yilda islohotlar davom ettirildi. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi davlat byudjetining rolini tahlil qilishning muhim qadamlaridan biri, bu davlat byudjeti xarajatlari tarkibi dinamikasining tahlilidir. Buning uchun biz O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi dinamikasini o'rganib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari dinamikasi

(mlrd.so'm hisobida)

t/r.	Ko'rsatkichlar	2007	2008	2009	2010
1.	Xarajatlar, maqsadli jamg'armalarsiz - jami	2 385,6	8197	10761	13733
2.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari - jami	1 096,3	4249	5901	8113
	jumladan:				
3.	Maorif	628,8	2469	3326	4635
4.	Sog'liqni saqlash	231,2	934	1256	1704
5.	Fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari	44,3	136	189	234
6.	Ijtimoiy ta'minot	9,5	35	46	59
7.	Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar narxidagi farqni qoplash	26,6			
8.	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	138,3	636	1039	1432
9.	Iqtisodiyotga xarajatlar	261,2	941	1290	1573
10.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish	320,2	628	829	825
11.	Davlat hokimiyati, boshqaruv organlari va sud organlari xarajatlari	44,2	206	273	352
12.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari	12,6	61	84	119
13.	Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasi	56,7	29	41	54
14.	Boshqa xarajatlar	569,4	1898	2338	2692

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumoti

Yqoridagi keltirilgan jadvaldan ko'rinib turganidek, davlat byudjeti xarajatlari 2007 yilda 2385,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib esa 4313,5 mlrd. so'mni tashkil etgan, boshqacha so'z bilan aytganda, ana shu yillar mobaynida davlat byudjeti xarajatlari 45,5 % ga oshgan.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash xarajatlari esa 2007 yilda – 1096,3 mlrd. so'm, 2008 yilda – 1305,4 mlrd. so'm, 2009 yilda esa – 1738,9 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan, ya'ni shu yillar mobaynida 58,6 %ga o'sgan. Davlat byudjetining jami xarajatlari o'sishiga nisbatan, bu xarajat turlarining ko'proq sur'atlarda o'sishi aholining ijtimoiy-madaniy hayotining yaxshilash bo'yicha davlat xarajatlarining ahamiyatini ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiyot xarajatlari 2007 yilda 261,2 mlrd. so'mni, 2008 yilda 342,1 mlrd. so'mni, 2009 yilda 459,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, ushbu yillar oralig'idagi o'sish 1,76 barobarga o'sgan.

Iqtisodiyot xarajatlari davlat byudjeti xarajatlari tarkibida sezilarli salmoqqa egadir, uning ulushi 12,5 % ni tashkil etgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, iqtisodiy munosabatlarning yangilanishini, institutsional (muassasalar sohasidagi) o'zgarishlarning amalga oshirilishini, boshqarishning

maqbul tarkibining yaratilishini talab etdi. SHuning uchun iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan bir davrda boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e'tibor berildi.

Islohotlar natijasida Davlat boshqaruv sohasida xodimlar soni maksimal darajada qisqartirilishga erishildi. Hukumat tomonidan boshqaruv apparati sonini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora - tadbirlar 2010 yilda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida ularning sonini 40 ming kishiga yoki 22 % ga qisqartirish va har yili 40,5 mlrd. so'm mablag'ni tejash imkonini beradi.

II bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturlarida aholi ijtimoiy himoyasining ustivor yo'nalishlari

2.1. Inson manfaatlari – byudjet siyosatining eng muhim maqsadi sifatida

Har qanday demokratik davlatning rivojlanishdan asosiy maqsadi – insondir. Jamiyat taraqqiyoti esa nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining kattaligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilgani bilan ham o'lchanadi.

Ilgari o'zining bir tomonlama rivojlangan, xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan iqtisodiyoti, halokatli paxta yakkahokimligi avjga chiqqan, qoloq ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasi, jon boshiga iste'mol darajasi past bo'lgan mamlakatimiz mustaqil rivojlanish yillarida yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi va buning natijasida uning qiyofasi tamomila o'zgardi, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi.

2010 yil mamlakatimizda "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan qabul qilingan dasturni amalga oshirishda sog'liqni saqlash, ta'lim, aholini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhit holatini yaxshilash, tabiat va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq masalalar muhim ustivor ahamiyatga ega. Bularning hammasi mohiyat e'tibori bilan inson kamolotiga, uning ma'naviy hamda moddiy talab-eh-tiyojlarini ta'minlash uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan Inson taraqqiyoti kontsepsiyasiga batamom mos va muvofiqdir.

Inson taraqqiyoti kontsepsiyasiga asosan aynan inson millatning boyligi hisoblanadi. Insonlarga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining quroli sifatida emas, balki bosh maqsadi deb qaralishi lozim. Har qanday taraqqiyotning pirovard maqsadi va muvaffaqiyat mezonini bo'lgan inson uchun tanlovning kengayishi, o'z erkinligini amalga oshirish, uzoq va sog'lom turmush kechirish imkoni, bilim olish va munosib hayot darajasining yaratilishi jamiyat rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kunda Inson taraqqiyoti kontsepsiyasi istiqloqlarning birinchi kunlaridan boshlab "Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun" degan hayotiy qoida asosida islohot jarayonlarni amalga oshirayotgan mamlakatimizda barcha o'zgarish va yangilanishlarning markazidagi ustivor masalaga aylanmoqda. Bu haqda so'z borganda, O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo'yilganligini qayd etish o'rinli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolarining BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari amalga oshirilishining borishi haqidagi ma'ruzalarini eshitib, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan demokratik o'zgarishlar yo'li yuqori darajada samarali ekanini ta'kidladi. CHindan ham, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalaridagi barcha islohotlarimiz pirovard natijada odamlar farovonligini muttasil oshirib borishga, mamlakatimiz har bir fuqarosining kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlarni, sof ekologik muhitni yaratishga qaratilgandir.

Keyingi 10 yil mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizda amalga oshirilgan barcha keng miqyosli ishlar BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari keng ko'lamda bajarilishini ta'minladi.

Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o'n ikki yillik yaxlit majburiy uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli oshirishga, kadrlarning yuksak darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlodini tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rish imkonini berdi.

Mamlakatimizda umumiy va o'rta maxsus ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. 7-15 yoshdagi bolalarning boshlang'ich va umumiy ta'limga qamrab olinishi, shuningdek aholining savodxonlik darajasi bugungi kunda yuz foizni tashkil etadi. Bu esa BMTning boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish sohasidagi Mingyillik rivojlanish maqsadlarining O'zbekiston tomonidan yetakchi davlatlar qatorida bajarilayotganini to'la tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda yurtimizda tibbiy xizmat tizimi amalda to'liq modernizatsiya qilindi, aholiga bepul yuqori malakali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun yuksak talablarga javob beradigan zamonaviy kasalxonalar va bo'limlarning ixtisoslashtirilgan tarmog'i tashkil etilishi islohotlarning eng muhim va amaliy natijasi bo'ldi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatning davlat bilan samarali aloqasini ta'minlashning, o'tkazilayotgan chuqur demokratik islohotlar, mamlakatni siyosiy-huquqiy rivojlantirish maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishining, shuningdek, xalqning ezgu intilishlarini ro'yobga chiqarish va farovonligini oshirishning, iqtisodiyotning raqobatdoshligini, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartiga aylanmoqda.

Ijtimoiy hayotni yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar jarayonlarida mamlakatimiz parlamenti tomonidan amalga oshirilayotgan aniq maqsadga qaratilgan qonun ijodkorligi ishi muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda 500 dan ziyod qonun qabul qilindi, 100 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjat, shu jumladan, BMTning inson huquqlarini ro'yobga chiqarish va uning uyg'un kamol topishi masalasiga bevosita aloqador bo'lgan oltita asosiy hujjati ratifikatsiya qilindi.

Oliy Majlisning quyi palatasi tomonidan tashkil etilgan hukumat va parlament muloqoti, qonun ijodkorligi ishini hamda manfaatdor vazirlik va idoralarning amaliy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish yakunlari bo'yicha mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yanada erkinlashtirish sohasidagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarining yo'nalishlari yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning parlament va jamoatchilik monitoringini olib borishga doir samarali mexanizmlarni aniqlash bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab olindi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2010 yil va undan keyingi davrga mo'ljallangan Qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil ishlari dasturiga asos bo'ldi. SHundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining bir qator vazirlik va idoralari rahbarlari BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarini O'zbekistonda amalga oshirishning borishini o'rganish va tahlil qilish uchun parlament eshituvlarida ishtirok etdilar. O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolarining BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari amalga oshirilishining borishi haqidagi ma'ruzalarini eshitib, Qonunchilik palatasi mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan demokratik o'zgarishlar yo'li yuqori darajada samarali ekanini ta'kidladi.

Mingyillik deklaratsiyasi BMTga a'zo davlatlarning tinchlik, taraqqiyot va adolatli dunyo to'g'risidagi orzu-intilishlarini ifoda etadi. Bu hujjatda inson huquqlari, davlat boshqaruvi va demokratiya bo'yicha majburiyatlarning keng doirasi belgilab berilgan. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining global, mintaqaviy va milliy darajalarda bajarilishi maqomining umumiy

bahosini va tushunilishini ta'minlaydigan sakkiz asosiy maqsad va ular bilan bog'liq vazifalar hamda ko'rsatkichlar alohida ajratib ko'rsatilgan. Bu maqsadlar va ular bilan bog'liq vazifalar 2015 yilga kelib amalga oshirilishi lozim.

Global Mingyillik rivojlanish maqsadlari quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

- 1) o'ta qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- 2) umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash;
- 3) erkaklar hamda ayollar tengligini rag'batlantirish va xotin-qizlar huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish;
- 4) bolalar o'limini kamaytirish;
- 5) onalar sog'lig'ini yaxshilash;
- 6) OITS/OIV, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;
- 7) ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- 8) rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni rivojlantirish.

2.1-jadval

O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlari

Maqsad	Milliy vazifalar
1. Kam ta'minlanganlikni kamaytirish, ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish	2015 yilga borib kam ta'minlanganlar darajasini ikki barobar kamaytirish
2. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish	2015 yilga borib boshlang'ich va asosiy o'rta ta'lim sifatini oshirish va shu bilan birga, ta'limdan umumiy bahramand bo'lish darajasini saqlab turish
3. Gender tengligini rag'batlantirish va xotin-qizlarga vakolat berish	2005 yilga borib boshlang'ich, umumiy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida gender tenglikka erishish 2015 yilga borib oliy ta'lim tizimida gender balansini yaxshilash.
4. Bolalar o'limini yanada kamaytirish	2015 yilga borib bolalar o'limini uchdan ikki qismga kamaytirish
5. Onalar sog'lig'ini yanada yaxshilash	2015 yilga borib onalar o'limini uchdan bir qismga kamaytirish
6. OITS/OIV(SPID), bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish	OITS/OIV(SPID) OITS/OIV kasalliklari tarqalishini kamaytirish va 2015 yilga borib uning tarqalishini butunlay to'xtatish Sil Silning tarqalishini kamaytirish va 2015 yilga borib uning tarqalishini butunlay to'xtatish
7. Ekologik barqarorlikni ta'minlash	Barqaror rivojlanish printsiplarini davlat siyosati doirasiga va mamlakatda qabul qilingan dasturlariga kiritish hamda nobud bo'lgan atrof muhit zaxiralarini tiklash 2015 yilga qadar yaxshilangan suv manbalaridan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo'ladigan shahar va qishloq aholisining ulushini ko'paytirish
8. Rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kuchaytirish	Dastlabki va joriy vazifalar Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, savdoni, shu jumladan, mintaqaviy va chegaralararo savdo hamda transport aloqalarini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb etish hamda suv va energetika zaxiralaridan foydalanishni oqilona yo'lga qo'yish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish yo'li bilan mintaqadagi qo'shni mamlakatlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni ta'minlash

Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish – global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarda tatbiq etiladi. Bu maqsad va vazifalarning maqsad muvofiqligi va erishilishi mumkinligi nuqtai nazaridan har bir alohida davlatning milliy shart-sharoiti, taraqqiyot darajasi, ichki imkoniyati va manfaatlariga moslashgan bo'lishi juda muhimdir. O'zbekiston ham ana shunday tamoyillar asosida Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha konkret muddat va ko'rsatkichlarni belgilash ustida ish olib bormoqda.

O'zbekiston uchun Mingyillik rivojlanish maqsadlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- 1) kam ta'minlanganlikni kamaytirish, ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish;
- 2) boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash;
- 3) ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
- 4) bolalar o'limini yanada kamaytirish;
- 5) onalar sog'lig'ini yanada yaxshilash;
- 6) OITS/OIV, sil va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;
- 7) ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- 8) rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kuchaytirish (2.1-jadval).

Istiqlol davrida mamlakatimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, jahon hamjamiyatidan munosib o'rinni egalladi. Erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mustaqillik yillarida salmoqli bo'ldi. O'zbekistonning Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish borasida erishgan yutuqlari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va dunyoning boshqa bir qator yetakchi moliyaviy institutlari tomonidan e'tirof etildi. O'tgan yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot 3,5, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobar o'sdi, o'rtacha ish haqi 14 barobar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarf-xarajatlari 5 barobardan ziyodroq ko'paydi. Har yili davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda.

Xususan, 2009 yilning yakuniga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi (2.2-jadval).

2.2-jadval

O'zbekistonda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil
Yalpi ichki mahsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5
Sanoat mahsulotning o'sishi	12,1	12,7	9,0	11,2
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,2
Savdo sohasi	21,0	7,2	16,6	16,4
Davlat byudjetining bajarilishi	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish hakining oshishi	44,2	40,0	40	40,3
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	27,0	23,0	26,5	27,8

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sish sur'ati oldingi yillarga qaraganda kamroq bo'lsa-da, yuqori darajada bo'lishi saqlangan. Ayniqsa, 2009 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirida MDH mamlakatlari bo'yicha iqtisodiy o'sish emas, balki aksincha, o'rtacha 6,7 foiz hajmidagi iqtisodiy pasayish kuzatilgani e'tiborda tutilsa, iqtisodiyotimizning bunday sharoitdagi o'sishining naqadar ahamiyatli ekanini tushunish mumkin.

Ayni paytda, keyingi yillar davomida yurtimizda yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymatlardagi o'sishi barqaror ravishda yuksalib kelmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha erishilgan natijalar sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- inflyatsiya darajasi yiliga 7-8 foizdan oshmagan holda saqlanib kelinmoqda;

- oltin-valyuta zaxiralari oxirgi 5 yil mobaynida 6 barobar o'sib, hozirda deyarli 1,5 yillik import hajmini qoplaydi;

- jami davlat tashqi qarzi YaIMning 9,5 foizini tashkil qilib, eksport hajmiga nisbatan 26 foizdan oshmaydi. Bu ko'rsatkichlar Jahon bankining mezonlari bo'yicha "juda o'rtamiyona" deb tasniflanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jiddiy ta'sirlariga qaramay, O'zbekiston dunyodagi kam sonli davlatlar qatorida iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda, ishonchli faoliyat ko'rsatayotgan moliya-bank tizimini saqlab turibdi.

Bu qadar salmoqli yutuq va natijalarning asosiy sabablaridan biri avvalo samarali iqtisodiy siyosatning to'g'ri tanlangani va izchil ravishda amalga oshirilgani bilan bog'liq. Bunda har yillik belgilanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari, dasturlari va chora-tadbirlari muhim o'rin tutadi. SHunga ko'ra, mohiyatan yil davomida asosiy e'tibor qaratish, barcha kuch va sa'y-harakatlarni yo'naltirish, imkoniyat va salohiyatni safarbar etishning muhim sohalari va jabhalarini ifodalovchi ustuvor yo'nalishlarning belgilab olinishi ushbu muvaffaqiyatlarning mustahkam zamini hisoblanadi.

Islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash – 2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi sifatida belgilab berildi. Bu bejiz emas, albatta. Eng avvalo, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq belgilab olingan islohotlar strategiyasi, uning pirovard maqsadi, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslanadigan, erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish va shu asosda xalqimizning farovonligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar o'zining beqiyos samarasini bermoqda. Ayni paytda, jahonni larzaga solgan, ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga katta talofatlar yetkazib, izdan chiqargan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jarayonlarining murakkab va og'ir sinovlaridan o'tayotgan mamlakatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish orqali yanada samarali va mustahkam bo'lib bormoqda.

Eng muhimi, yurtimizda inqiroz sharoitida aholini ishonchli himoya qilish, uning daromadi va moddiy farovonligini oshirish imkoni ta'minlandi. Real daromadlar 2009 yil davomida 26,5 foizga ko'paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'sishi o'rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdig'idir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilingan mamlakatni demokratlashtirish bo'yicha o'z modelimiz, iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi vazifalarini bajarishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish tamoyillariga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish ushbu yutuqlarni qo'lga kiritishda muhim omil bo'lmoqda³.

Aholining har bir a'zosi turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan

³ Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon haёт barpo этиш йўлини катъият билан давом эттиришдир. Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2007 йил 8 декабрь.

hisoblanadi. Ana shu ma'noda aholi muhofazasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rni hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilgani bilan ham baholanadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholini, ayniqsa kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun har yili davlat byudjetidan muayyan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Bunday yordam o'tish davrida ham, inqiroz sharoitida ham aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda bolalar o'limi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng past darajada hisoblansa-da, dunyodagi rivojlangan davlatlar bilan qiyoslaganda bu borada hali muammolar yetarli. Bolalar hayotining neonatal davrida (umrning birinchi yilida), yuqori nafas yo'llari kasallanishi oqibatida yuz berayotgan o'lim holatlari ko'p uchramoqda. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va bir yoshgacha bo'lgan go'daklar ovqatida mikroelementlar, jumladan, yodning yetishmasligi ularning hayotiga tahdid solmoqda. Bu avvalo onaning sog'lig'i va avqatlanish sifati bilan bog'liq.

Mamlakatimizda bolalar va onalar o'limini yanada qisqartirish bo'yicha Sog'liqni saqlashni isloh qilish dasturi, dastlabki Sog'liqni saqlash tashabbusi va go'daklar hamda onalar o'limini qisqartirish milliy dasturi doirasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday izchil sa'y-harakatlar nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilmoqda va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

2.2. Iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida aholining muhtoj qatlamlarini sotsial muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy, ayni vaqtda siyosiy ahamiyatga egadir. CHunki jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi inson uning yuksalish darajasi, haqiqiy qiyofasini belgilaydi. SHu boisdan, aholining mazkur qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati miqdoriy o'zgarishlarini, ularning daromadlari va xarajatlarining shakllanish xususiyatlarini, tarkibini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari - tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;
- ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi;
- uchinchidan, daromatlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

- 2.3-jadval

- O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari o'zgarishi*, foiz hisobida

Ko'rsatkichlar	Yillar	2010 yilda 2006 yilga nisbatan (+,-)
-----------------------	---------------	---

	2006	2007	2008	2009	2010	
Yalpi daromad	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	-
Pul daromadlari	82,4	83,8	84,5	85,5	86,5	4,1
shu jumladan:						
Ish haqi	28,2	29,0	29,4	29,7	30,0	1,8
Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad	12,9	15,1	15,4	18,1	19,4	6,5
SHaxsiy yordamchi xo'jalikdan olingan daromad	17,8	17,7	17,0	15,3	12,8	-5,1
Ijtimoiy transfertlar	15,5	16,0	16,7	16,9	17,2	1,7
Qarindoshlardan olingan moddiy yordam	5,2	4,2	4,1	3,1	2,8	-2,4
Mulkdan olingan daromad	1,3	1,2	1,1	1,5	1,9	0,6
Kredit, ssudalar	1,4	0,5	0,6	0,9	1,4	0
Boshqa pul daromadlari	0,1	0,1	-	-	-	-0,1
Natura shakldagi daromadlar	17,6	16,2	15,5	14,5	13,5	-4,1

- *Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega (2.3-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2010 yilda mamlakatimizda aholi yalpi daromadlarining 86,5 foizni pul daromadlari, qolgan 13,5 foizni natural shakldagi daromadlar tashkil etgan. Biroq, tahlil qilinayotgan davrda aholi daromadlarining o'zgarishi bir me'yorda kechmagan. CHunonchi, 2006-2010 yillar davomida aholi daromadlari tarkibida pul daromadlarining ulushi 82,4 foizdan 86,5 foizga yoki 4,1 punktga o'sgan, aksincha natural shakldagi daromadlar miqdori 17,6 foizdan 13,5 foizga yoki 4,1 punktga kamaygan.


Aholi daromadlari tarkibida pul daromadlari ulushining ortishi uning shakllanish manbalariga bog'liq. Ya'ni, tahlil etilayotgan davrda ish haqining 28,2 foizdan 30,0 foizga, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadning 12,9 foizdan 19,4 foizga, ijtimoiy transfertlarning 15,5 foizdan 17,2 foizga, mulkdan olinadigan daromadning 1,3 foizdan 1,9 foizga o'sgani yalpi daromad tarkibida pul daromadlari ulushining ortishiga olib kelgan. SHu bilan birga, bu davrda aholi daromadlarining tahlili shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olingan daromadning 17,8 foizdan 12,8 foizga, qarindoshlardan olingan moddiy yordamning 5,2 foizdan 2,8 foizga kamayganini, kredit, ssudalarning (1,4 foiz) o'zgarmaganini ko'rsatdi.

O'zbekiston hukumati o'z zimmasiga mamlakatimizda kam ta'minlangan toifa miqdorini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik tamoyillarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, BMTning turli tarkibiy tuzilmalari bu borada moliyaviy yordam berish va mamlakatimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ko'maklashishga hozirligini izhor etadi. O'zbekistonning 2015 yilgacha bo'lgan davrdagi vazifasi kam ta'minlangan aholi hissasini 50 foizga qisqartirishdan iborat. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuksak iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda ortib borishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayishi,

iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayishi hisoblanadi.

2.2-rasm.



Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi darajasiga bog'liq bo'ladi (2.4-jadval).

Ayni paytda aholi farovonligi, uning real daromadiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri – ichki bozordagi oziq-ovqat mahsulotlarining narx darajasi hisoblanadi (2.5-jadval). Chunki, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi aholi real daromadlarining pasayishiga, aksincha, narxlarning pasayishi esa, hattoki nominal daromad o'zgarmagan taqdirda ham, real daromadning oshishiga olib keladi.

2.4-jadval

2010 yilda O'zbekiston aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi

Oziq-ovqat mahsulotlari turlari	O'lchov birligi	Ichki iste'mol talabi*	Ishlab chiqarish hajmi	Ta'minlash darajasi, foizda
Sabzavot	ming tn.	3812,4	5704,7	149,6
Kartoshka	ming tn.	1761,4	1524,5	86,5
Poliz	ming tn.	578,0	1071,0	185,3
Meva	ming tn.	2417,0	1542,9	63,8
Uzum	ming tn.	617,2	899,6	145,7
Go'sht (so'yilgan vaznda submahsulot bilan)	ming tn.	1318,7	916,4	69,5
Sut	ming tn.	4118,6	5779,0	140,3
Tuxum	mln. dona	8214,4	2715,9	33,1

Un	ming tn.	2747,4	3675,0	133,8
O'simlik yog'i	ming tn.	222,7	236,1	106,0
Meva-sabzavot konservalari	mln. sh.b.	360,8	454,3	125,9

*) Ichki iste'mol quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aholining iste'mol meyor;
- qayta ishlashga yo'naltirilgan hajm;
- kelgusi yil hosili uchun urug'lik hajmi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2009 yil davomida o'tgan yilga nisbatan bir qator mahsulotlarning narxlarini pasayganini ko'ramiz. Buni mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish borasidagi samarali chora-tadbirlar natijasi sifatida baholash mumkin. O'z o'rnida shuni ham ta'kidlash lozimki, 2009 yilda shakar (159,6 foiz), choy (121,8 foiz), mol go'shti (110,8 foiz), (sut 106,7 foiz) kabi mahsulotlarning narxi oshgan. Biroq, narxlar indeksidagi bu o'zgarishlar aholi daromadlarining o'tgan 2010 yildagi 40 foiz o'sishi bilan to'liq qoplanib, aholi jon boshiga real daromadlarning 26,5 foiz oshishiga erishildi.

2.5-jadval

Ichki bozordagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha narxlarini, so'mda

Mahsulot turi	O'lchov birligi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2010 yilda 2009 yilga nisbatan, foizda
Bug'doy uni	1 kg	670	926	871	94,1
Guruch	1 kg	881	2842	2069	72,8
O'simlik yog'i	1 litr	2197	2764	2520	91,2
SHakar	1 kg	1114	1327	2118	159,6
CHoy	1 kg	3504	4319	5260	121,8
Mol go'shti	1 kg	4656	5998	6646	110,8
Sut	1 litr	558	688	734	106,7
Tuxum	10 dona	1754	2395	2208	92,2
Kartoshka	1 kg	514	627	591	94,3
Karam	1 kg	269	287	267	93,0
Piyoz	1 kg	222	783	406	51,9
Sabzi	1 kg	239	279	261	93,5

Ijtimoiy siyosat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonuniy hujjatlar bilan belgilab quyilgan fuqarolarning ijtimoiy huquq va kafolatlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2007 yil «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, turmush darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi.

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat Dasturida aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish ustuvor yo'nalish qilib belgilangan.

- aholi nochor qatlamlarining turli toifalariga, birinchi galda yolg'iz keksa fuqarolar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan balog'atga yetmagan bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam normalari va stavkalarini maqbullashtirish;
- keksalar va nogironlar uylarini, bolalar uylarini hamda kasalliklarga chalingan bolalar uchun internatlarni, urush va mehnat faxriylari uchun davolash muassasalarini ta'minlashga sarflanadigan Me'yoriy moddiy xarajatlar miqdorini maqbullashtirish;

- 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga mahalla ko'mitalari tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam va ijtimoiy miqdorlarini qayta ko'rib chiqish;

- «Mehribonlik» uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika bazasini mustaxhamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e'tiborni yanada kuchaytirish, «Sen yolg'iz emassan» insonparvarlik shiorini hayotga amaliy joriy etilishini ta'minlash;

- aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish, nochor oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq va samarali ijtimoiy yordam ko'rsatishni oshirish, ularning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirilishini ta'minlash, ularga moddiy yordam va ma'naviy madad ko'rsatish, aholini ijtimoiy ko'llab-kuvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahallaning rolini kuchaytirish;

5. «Mehribonlik», «Saxovat» va «Muruvvat» uylarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va munosib baholash mexanizmini anada takomillashtirish;

- yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, yosh oilalar mustaqil hayotga qadam ko'yishida ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish yo'li bilan ko'llab-quvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2007 yil 19 dekabrda qabul qilingan «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lib aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ko'llab-kuvvatlash qaratilgan islohotlarning davomi hisoblanadi. Mazkur farmon aholini ijtimoiy himoya qilish yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali ko'llab-kuvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Bu tadbirlarni amalga oshirishga davlat byudjeti hisobidan 31,5 mlrd. so'm mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy himoya yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish faoliyatida qanday qatnashishga qaramasdan, aholining ma'lum tabaqalarini turmush darajasini yaxshilash amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda respublikamizda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

1. Bolali oilalarga nafaqalar: - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa;

• bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; - bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa; - Voyaga yetmagan bolalari bor oilalarga nafaqa.

2. Ijtimoiy nafaqalar: - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga; - ish staji yo'q qariyalarga; - boquvchisini yo'qotgan oilalarga.

3. Ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash: - qariyalar va nogironlar uylari; - mehribonlik uylari - kasalmand bolalar uchun internatlar.

4. Turli imtiyozlar: - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish; - sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash; - protezlash; - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar.

5. Kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar: - ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan: - bolali oilalarga nafaqalar; - keksalar va nogironlar uyidagilarni boqish va xizmat ko'rsatish; - nogironlarni mehnatga o'rgatish, ishga joylash, protez qo'yish; - CHernobil' AESdagi falokatda qatnashganlarga, nogironlarga moddiy yordam beriladi.

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mahalla tizimi orqali byudjetdan moliyalashtirish quyidagi asosiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turlari amalga oshiriladi: kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar, bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar.

Kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi. Kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar respublika byudjeti mablag'lari, mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalar va xo'jaliklarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar) mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Mablag'lar qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari o'zini - o'zi boshqarish organlarining jamg'arma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus schyotlariga o'tkaziladi va olib qo'yilmaydi.

Har oylik moddiy yordam miqdori amaldagi eng ish haqining 1,5 dan 3 baravarigacha miqdorida belgilanadi. Moddiy yordam to'lash muddati tugaganda, yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda yoki doimiy yashash joyi o'zgartirilgan hollarda moddiy yordam to'lash to'xtatiladi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ular davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi "250" bo'limi, "5" paragrafi, "03" xarajatlar turi, "4" ob'ekti, "25" kichik ob'ekti bo'yicha aks ettiriladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagilarga tayinlanadi:

- ishlamaydigan onalarga yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga (odatda ota, o'g'il qilib oluvchi, vasiy yoki boshqa qarindoshlarga);

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus va o'rta hunar o'quv yurtlarida pulli-kontrakt asosida o'qiydigan onalar yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga;

- yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi onalarga (ona o'rnini bosadigan shaxslarga), shuningdek faoliyatni yuridik shaxsni tashkil etmasdan amalga oshiradigan dehqon xo'jaliklari a'zolariga.

Bolani parvarish qilish nafaqasi har oyda, parvarish qilinadigan bolalar sonidan va mazkur nafaqani oladigan shaxsning mehnat stajidan qat'i nazar amaldagi eng kam ish haqining 200 % i miqdorida to'lanadi.

Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa byudjet tashkilotlarida (muassasalarida) ishlayotgan (ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan, bunga pulli-kontrakt asosida o'qiyotganlar kiritilmaydi, xizmatni o'tayotgan) onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Bu xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi xarajatlar turi "03", hisobi "4", analitik hisobi "20" da ko'rsatiladi. Mulchilik shaklidan qat'i nazar boshqa korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslarga) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha onalarga beriladigan nafaqalar parvarish kilinayotgan bola ikki yoshga to'lganda, bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go'daklar uyiga) to'liq davlat ta'minotiga joylashtirilganda, bola vafot etganda, oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqariga chiqib ketgan hollarda to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 1996 yil 10 dekabrda PF-1657-sonli va "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida" 2002 yil 25 yanvardagi PF-3107-sonli Farmonlariga muvofiq 16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa beriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha ("umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha") bolalari bo'lgan oilalarga beriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa:

- bir bolali oilalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 % i miqdorida;
- ikki bolali oilalar uchun - 100 % i miqdorida;
- uch bolali oilalar uchun - 140 % i miqdorida;
- to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun - 175 % i miqdorida belgilanadi.

Nogiron bolali oilalar; ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar; bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar; ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, mehnat birjasida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar mablag'lari hamda byudjetdan tashqari manbalar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Respublikamizda to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek transportda yurish kartochkalari bilan ta'minlanadi.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ularga barcha turdagi umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganda va ishga joylashayotganda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar amaldagi eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorida, eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravarigacha miqdorda pul nafaqasi ham beriladi.

Nafaqalar ta'lim muassasalarining bitiruvchisiga ta'lim muassasasini bitirib ishga joylashayotganida bir marta beriladi. Agar ushbu muassasalarning tarbiyalanuvchisi 9-sinfni bitirib, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga, 11-sinfni bitirib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirsa, unda bitiruvchi har ikki nafaqani ushbu ta'lim muassasasida o'qishni tugatgandan so'ng shu muassasalardan oladi. To'lanadigan nafaqalar va pul nafaqalari uchun qilinadigan xarajatlar miqdori ular tarbiyalanayotgan ta'lim muassasalarining yoki o'qishni davom ettirayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining xarajatlar smetasida byudjet xarajatlari iqtisodiy tasnifi bo'yicha 03-4-90-modda "Uy xo'jaliklariga boshqa transfertlar" moddasi bo'yicha aks ettiriladi.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan, umumta'lim maktablari, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida o'qiyotgan to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar o'qiydigan ta'lim muassasasi yashash joyidan 3 kilometrdan ziyod masofada joylashgan bo'lsa, ular jamoat transporti va o'quvchilar uchun transportda imtiyozli yurish kartochkalari muomalada bo'lgan shahar va aholi punktlarida imtiyozli transportda yurish kartochkalari yoki transportda imtiyozli yurish huquqini beruvchi boshqa turdagi kartochka beriladi.

Davlat byudjetining xarajatlariga to'xtalib, avvalambor, inflyatsiya darajasining pasayishi, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish tizimini shakllantirish hamda ijtimoiy qo'llab - quvvatlash tizimining manzilliligini yanada oshirish natijasida 2009- 2010

yillarda YaIMga nisbatan byudjet xarajatlari miqdorining kamayib borayotligi kuzatilmoqda. Ammo nominal mazmunda (mutlaq ko'rsatkichlarida) davlat byudjeti xarajatlarining ortib borganligini kuzatishimiz mumkin. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali tahlil qilamiz.

-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi

Xarajatlarning turlari		2009 y.		2010 y.	
		mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
1.	Ijtimoiy- madaniy tadbirlarga xarajatlar	6170,9	56,6	8113,0	59,1
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	1305,8	11,9	1573,2	11,5
3.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	820,0	7,6	825,0	6,1
4.	Davlat hokimiyati organlari, boshqarish va sud organlari xarajatlari	271,9	2,5	351,9	2,5
5.	Fuqarolarning o'z - o'zini boshqarish organlari xarajatlari	85,0	0,7	118,5	0,8
6.	Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi	34,2	0,3	54,2	0,3
7.	Boshqa xarajatlar	2225,2	20,4	2696,5	19,7
	Jami xarajatlar	10913,0	100	13732,5	100

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirigi ma'lumotlari

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibida ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2009 yilda 6170,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, jami byudjet daromadlarida 56,6%ni tashkil qilgan. 2010 yilda esa ushbu xarajatlar 8113,0 mlrd. so'mni va jami byudjet xarajatlardagi ulushi 59,1%ni tashkil qilishi rejalashtirilgan.

Ushbu xarajatlarning tarkibida maorif, sog'liqni saqlash, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar, shu jumladan bolali oilalarga nafaqalar asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda.

2009 yilda ish haqi va aholining turmush darajasini izchil oshirib borish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilgacha ish haqini 2,5 barobarga ko'paytirish bo'yicha belgilab berilgan vazifasini ijrosini ta'minlash 2009 yilda ham davom ettirildi va 2009 byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori 1,4 barobarga oshirildi.

2.3. Aholi o'rtasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlashda davlat byudjetning o'rni

O'zbekiston uchun Mingyillik rivojlanish maqsadlaridan biri ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda ayollarning ta'lim olish, kasb tanlash, ijtimoiy hayotda va qarorlar qabul qilishda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda ayollar savdosi (trafik) va ularni ekspluatatsiya qilishning oldini olish, yosh oilalarni, oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nfuzini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Jahonda 876 million katta yoshdagi savodsiz aholi mavjud bo'lib, shuning 75 foizini ayollar tashkil etadi.

Ayollarning bandlik darajasi erkaklar bandlik darajasining uchdan ikki qismiga to'g'ri keladi. 2005 yilda ayollar jahon mamlakatlari parlamentlarida 15 foiz o'rinni egallashgan. O'ta qashshoqlikda yashayotgan 1,3 milliard kishining 70 foizini ayollar tashkil qiladi. Dunyoning

ko'pgina mamlakatlarida o'g'il farzandlar qiz farzandlarga nisbatan ko'proq qadrlanadi. Maktabga qatnamaydigan bolalarning taxminan 60 foizini qizlar tashkil etadi. Ayollar va qizlarning kamsitilishini bartaraf etish masalasi rivojlanishning ham, qashshoqlikka qarshi kurashishning ham muhim masalasidir. Ayollar erkaklar bilan teng bo'lgan mamlakatlar, odatda, boy va farovon bo'ladi.

Bunday e'tibor o'z navbatida jamiyat hayotida mehr-oqibat, o'zaro hurmat muhitining kuchayishiga, oila institutining mustahkamlanishiga, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Gender tengligining yana bir muhim jihati – uning Mingyillik rivojlanish maqsadlarining asosiy qismi ekanidadir.

O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy faolligi dunyo mamlakatlariga nisbatan yuqori hisoblanadi (2.8-jadval).

2.8-jadval

**Aholi mehnat faolligining gender xususiyatlari, foiz hisobida
(2009 yil)**

	ayollar	erkaklar
Dunyo bo'yicha	53,1	80,3
Rivojlangan mamlakatlar	50,4	67,5
Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichidagi mamlakatlar	51,0	70,5
O'zbekiston	68,9	72,7

Manba: Demoskop Weekle

Mustaqillik yillari mamlakatimizda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois ularning ish bilan bandligi yil sayin oshib bormoqda (2.9-jadval).

Ko'rib turganingizdek, 2010 yilda 1991 yilga nisbatan ayollarning ish bilan bandligi erkaklarnikiga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. «Sog'lom ona – sog'lom bola» dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat sohasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog'liq masalalar yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish hamda maslahat ishlarini kuchaytirish va yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2010 yilda davlat byudjetida sog'liqni saqlash sohasidagi xarajatlar 1 trillion 700 milliard so'm atrofida belgilandi, ya'ni, 2009 yilga nisbatan 30 foizga ko'paytirildi.

2.9-jadval

**Mamlakatimiz iqtisodiyotida ayollarning ish bilan bandligi
(ming kishi)**

Yillar	Jami	SHu jumladan		ayollar ulushi, %
		ayollar	erkaklar	
1991	8254,6	3682,0	4622,6	44,6
1995	8449,2	3717,6	4731,6	43,9
2000	8983,0	3955,1	5027,9	44,0
2005	10196,3	4871,5	5324,8	47,8
2006	10467,0	5003,6	5463,4	47,8
2007	10735,4	5017,1	5718,3	46,7
2008	11035,4	5057,1	5978,3	45,8
2009	11328,1	5210,9	6117,2	46,0
2010	12131,3	5616,6	6514,7	46,3
2010 yilda 1991 yilga nisbatan	146,9	152,5	140,9	-


o'zgarishi, foiz hisobida				
---------------------------	--	--	--	--

* Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, 2010 yilda davlat byudjetining 50 foizdan ko'prog'i mamlakatimizda faqat ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishga yo'naltirildi.

2009 yilda ona va bola salomatligini muhofaza etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1096-sonli va 2009 yil 1 iyuldagi "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi 144-sonli qarorlari qabul qilindi.

2.7-rasm.




qilgan.

CHaqaloqlar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'limni uchdan ikki qismga kamaytirish O'zbekiston uchun Mingyillik rivojlanish maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Aytish joizki, diyorimizda chaqaloqlar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi yil sayin kamayib bormoqda (2.8-rasm).

2.8-rasm. O'zbekistonda 1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi dinamikasi (har 1000 aholiga nisbatan)*



* Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, davlatimiz tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2005 yilga qaraganda 1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar o'limi har 1000 aholiga nisbatan 14,9 tadan 11,7 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 20,6 tadan 15,9 taga kamaygan.

OITS kasalligi dastavval bundan 20 yil oldin aniqlangan bo'lib, hozirgacha OITSDan vafot etganlarning soni jahon bo'yicha 25 million kishidan oshib ketdi. Har kuni 15 000 kishi yangidan OIVni yuqtiradi. OITS bilan bog'liq kasalliklardan kuniga 8000 odam vafot etmoqda. Bu kasallik tufayli har yili 3 millionga yaqin inson hayotdan ko'z yummoqda. Dunyoda yangidan OIV yuqtirganlarning 50 foizga yaqini yoshlardir. Har yili 8,8 million kishida sil kasalligi aniqlanadi. Jahonda sil tufayli har kuni 5500 kishi vafot etadi, bu esa bir yilda milliondan ziyodni tashkil etadi. Bunday holatning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Bezgak kasali bilan og'rish holatlari har yili 500 milliongacha yetadi. SHundan bir milliondan ortig'i o'lim bilan yakun topmoqda. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining asosiy sababi bo'lgan bu xastalikning 90 foizga yaqini tropik Afrikaga to'g'ri keladi. BMTning OITSGa qarshi kurash dasturi (UNAIDS) BMT tizimidagi hamma tashkilotlarning kuchini global va milliy miqyosda OIV/OITSGa qarshi kurashga birlashtirmoqda.

Mamlakatimizda VICH/OITS, sil va boshqa xavfli kasalliklarga qarshi kurash borasida maxsus dastur asosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- malakali shoshilinch akusherlik yordami ko'rsatish bo'yicha akusher-ginekologlarni o'qitish;
- jinsiy yo'l orqali o'tadigan infeksiyalar va OIV infeksiyasi diagnostikasi va profilaktikasini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami darajasida integratsiya bo'yicha dasturni ishlab chiqish;
- OIV infeksiyasini yuqtirgan homilador ayollarni ularga maslahat berish dasturlari bilan qamrab olish.
- zamonaviy kontratseptiv vositalardan keng foydalanishni ta'minlash.

2.9-jadval

Mamlakatimizda VICH/OITS va sil bilan kasallanish (har 100000 kishiga nisbatan)*

Ko'rsatkichlar	Yillar					2009 yilda 2005 yilga nisbatan o'zgarishi, +,-
	2005	2006	2007	2008	2009	
VICH/OITS	0,175	0,316	0,304	0,380	0,563	0,388

Sil	65,5	73,3	79,4	77,6	75,8	10,3
-----	------	------	------	------	------	------

* Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekistonda VICH/OITS va silga qarshi kurash, ushbu kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni davolashni nazorat qilish bo'yicha faol choralar ko'rildi (2.9-jadval).

O'zbekistonda OITS/OIV bilan kasallanishning umumiy ko'rsatkichlari, garchi hali yuqori bo'lmasa-da, uning jadal ortib borayotgani tashvishlanarlidir. Giyohvandlar va mahbuslar singari nochor guruhlar orasida esa kasallikning o'sish sur'ati yanada yuqori bo'ldi. OIVga chalinish holatlarining 50 foizdan ko'prog'i giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni, mamlakatni modernizatsiya qilishni davom ettirish hamda chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va shu asosda o'z fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratishni o'zining istiqboldagi muhim vazifalari deb biladi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlanishni davom ettirish maqsadi sovet davridan meros bo'lib qolgan ekologik muammolarni zudlik bilan hal etishni talab etar edi.

SHu bois mamlakatimiz ekologik muammolarni hal etishda avvalo o'z sa'y-harakatlariga tayanib, birinchi navbatda, ushbu muammolarning iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratadi. O'zbekiston Ekologik harakati tashkil topishi va uning a'zolari uchun parlamentdan 15 ta joy ajratilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu harakat nafaqat umummilliy miqyosda, balki muayyan hudud atrof-muhit ifloslanishi, aholi salomatligini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalariga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish borasida ham samarali faoliyat yuritmoqda.

Yurtimizda ekologiya sohasida 2015 yilga qadar hal etilishi lozim bo'lgan milliy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

a) hukumat siyosati va dasturlari atrof muhitni hozirgi va kelajak avlod uchun muhofaza qilishga yo'naltirilishini ta'minlash va tabiiy zaxiralarni asrab-avaylash jarayonini kuchaytirish;

b) toza suvdan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo'ladigan shahar va qishloq aholisining ulushini ko'paytirish.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha BMT agentligi guruhi va Osiyo rivojlanish banki yordamida tayyorlangan ilk tadqiqotlar Mingyillik rivojlanish maqsadlariga tegishli ma'lumotlar aniq bo'lishi va butun jamiyatda ishonch uyg'otishi kerakligini ko'rsatmoqda. Milliy Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishdan har bir kishiga manfaat bo'lishini ta'minlash uchun mavjud ekologik muammolar aholi turli qatlamlariga ularning jinsiy mansubligi, yoshi, ish joyi, daromadi va turar joyiga bog'liq ravishda ta'sir qilishini aniqlash juda muhim.

O'zbekiston gumanitar va ijtimoiy rivojlanish sohasida, 2000 yilda BMT tomonidan e'lon qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish imkonini beradigan xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirish borasida ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni muhim vazifa deb hisoblaydi.

Yurtimizda biron-bir ishni birgalikda bajarish uchun kuch-g'ayrat va harakatlarini birlashtirish odati bor. Bu ajoyib qadimiy an'ana hashar deb ataladi. Haqiqatan ham, har qanday ishni, ayniqsa, Mingyillik rivojlanish maqsadlari singari murakkab ishni ko'pchilikning kuchi bilan hal etish oson kechadi. SHuning uchun global hamkorlikni MRMga erishishda jahon miqyosidagi o'ziga xos hashar deb atash mumkin.

O'zbekiston Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishda hamkorlik va hamdo'stlikning ahamiyati naqadar katta ekanini tushunadi. Mamlakatimiz xalqaro, mintaqaviy va milliy miqyosda hamkorlik munosabatlarini doimiy ravishda yo'lga qo'yib kelmoqda. Bu borada xalqaro bozorga chiqish va savdo bilan sarmoyadorlikni rivojlantirishga imkon beradigan mintaqaviy hamkorlik eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Savdoni rag'batlantirish, suv va

energetika zaxiralaridan birgalikda foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va g'oyalar hamda tajribalarni erkin almashish bugungi kunda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Xalqaro tashkilotlar barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari bilan hamkorlikda Orol dengizi havzasini tiklash dasturini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston SHanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropa va Osiyo iqtisodiy hamjamiyati, BMT va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda xavfsizlik masalalari, shu jumladan, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, odam savdosi va terrorizmga qarshi kurash, shuningdek, yagona iqtisodiy va axborot makonini yaratish masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish vazifalarini hal qilmoqda va ular kelajakda o'z natijasini beradi, albatta.

Yurtimiz uchun yuqorida qayd etilgan masalalarni hal etishda BMTning ixtisoslashtirilgan institutlari (YuNESEP, XMT, BMTRD va boshqalar) bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, ko'rsatib o'tilgan sohalarda asosiy xalqaro huquq normalarini hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etish muhimdir.

Prezidentimiz o'z nutqida O'zbekiston BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun taklif etgan Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi Taraqqiyotni jadallashtirishga oid global harakatlar rejasini to'la qo'llab-quvvatlashini va uni amalga oshirishda faol ishtirok etishini bildirdi.

III-bob. “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini o'qitishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish

3.1. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning umumiy tavsifi

Ta'lim berish, har bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga yetkazish mahorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutola qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni mag'zini talabalar ongiga mohirona yetkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi.

Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. o'qituvchining ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga yetkaza olish mahorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi hayot yo'llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funktsiyasiga qarab tanlanadi. o'qituvchi o'zining shaxsiy sifatlari: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi,

ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibligi, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmasligimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni tamasiz yetkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

So'z orqali ifodalanadigan metod;

Ko'rgazmali metod;

Amaliy metod.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi.
- Laboratoriya ishlar metodi.
- Mustaqil ishlar metodi.
- Muammoli evristik modellashtirish metodi.
- Ilmiy tadqiqot metodlari.
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi.
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: – so'z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: – o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Ta'limning rag'batlantirish metodlari:

1. Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.

2. Ta'limga burch va mas'uliyatini rag'batlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, ta'limda nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari quyidagilar.

1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

2. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

3. Laboratoriya va amaliy nazorat va o'z -o'zini nazorat qilish metodi.

4. Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarda bilish faoliyatini, qabul qilish, anglash va amalda qo'llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. o'quvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab yetish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi

Mavzuning asosini tushuntirish va uqtirishda hikoya usulidan foydalaniladi. o'quv materiallari mazmunini og'zaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodini qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish, uqtirish metodlarini samarali qo'llash shartlari: rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va hikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uqtirishda zaruriy emotsionallikni tanlash darkor.

Ma'ruza matnini tushuntirish va uqtirish informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqa usullaridan foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning muammoli-qidiruv metodlari; tizimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Ta'limni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini qo'zg'atadigan, faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqil holda yoki o'qituvchining yordamida uni yechish, hal qilish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli o'qitish yoki muammoli masalalarning yechilishini talab qilish o'quvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil qilingan ko'nikmalariga asoslangan holda izlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bemalol o'zi yecha oladigan qilib tuzilish kerak. Aks holda, masala talabaning ulgurmagan bilimlariga ham asoslanib tuzilsa, u holda talaba o'ziga ishonmay qoladi, o'zidagi bilimga ishonchi yo'qoladi, har qanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir. Chunki talabaga hozirgacha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli o'qitish talabaning fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga qiziqish uyg'otadi. Fahm-farosatli, mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Test savollari muammoli tarbiyaviy masala, o'quvchining aqliy va axloqiy bilimini kengaytiradi. Ongini, tafakkurini charxlaydi. Insonlarga bo'lgan muomala madaniyatini

takomillashtiradi. SHunga o'xshash masalalarni muttasil yechib borgan, aqliy va axloqiy bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lgan talaba komillikka erishib boradi.

o'quv ma'ruza metodi: o'quv materialini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutadi, hikoya metodidan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalardan foydalaniladi.

Suhbat metodi: Og'zaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob usuli ham deb yuritiladi. Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi qismlarda suhbat, savol-javob metodi qo'llaniladi. Suhbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari: ular shartli ravishda ikkiga bo'linadi.

1. Illyustratsiya metodi: – plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

2. Namoyish qilish metodi – asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga bog'liq kinofilmlar va diafilmlar ham kiradi.

Ta'limning amaliy metodlari: yozma mashqlar, ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish mashqlari kiradi. Xuddi shuningdek, laboratoriya tajribalari, ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish tsexlari, o'quvchilar brigadalarida mehnat topshiriqlarini bajarishlari ham ta'limning amaliy metodidir.

3.2. “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini ma'ruza mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish

Kasb-hunar kollejlari talabalarga “Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati ” mavzusini o'qitish o'ta murakkab jarayon hisoblanib, o'qituvchidan bir qator iqtisodiy tushunchalarni mazmun va mohiyatini to'liq ochib berishni talab etadi. Jumladan davlat byudjeti, mahalliy byudjetni boshqarish tizimining zarurligi va mohiyati, mahalliy byudjet xarajatlari, mahalliy byudjetning iqtisodiy, ijtimoiy madaniy tadbirlarga sarflanuvchi xarajatlar, dotatsiya, subventsiya, subsidiya kabi tushunchalarni talabalarga batafsil yoritib berish lozim.

Aholi turmush darajasini oshirishda davlat moliyasining ahamiyati byudjetdan moliyalashtiriluvchi tarmoq va sohalarning faoliyatida moliyaviy muammolarning kelib chiqmasligi bevosita byudjetdagi taqchilik bilan bog'liq.

Мавзу. “Аҳоли турмуш даражасини оширишда давлат молиясининг ахамияти”

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	<i>Talablar soni: 20 – 80 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Muammoli ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoyasida ahamiyati 2. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy xarajatlar tarkibi 3. Davlat byudjetidan ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan xarajatlar tahlili 4. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan davlat dasturlarini moliyalashtirish 5. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'larni sarflanishida g'aznachilik tizimining o'rni 6. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'lar sarflanishining nazoratini tashkil etish
<p style="text-align: center;"><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobi va auditi haqida bilimlarni shakllantirish.</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoyasida ahamiyatini ochib berish 2. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy xarajatlar tarkibi yoritib berish 3. Davlat byudjetidan ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan xarajatlar tahlili o'tkazish 4. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan davlat dasturlarini moliyalashtirishni yo'nalishlari o'rgatish 5. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'larni sarflanishida g'aznachilik tizimining o'rni va ahamiyatini yoritish 6. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'lar sarflanishining nazoratini tashkil etilishi bilan tanishtirish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy sohadagi ahamiyatini bilan tanishtiriladi 2. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy xarajatlar tarkibi bilan tanishtiriladi 3. Davlat byudjetidan ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan xarajatlar tahlili o'rgatiladi 4. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan davlat dasturlarini moliyalashtirishni assolari bilan tanishtiriladi 5. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'larni sarflanishida g'aznachilik tizimi faoliyati o'rgatiladi 6. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'lar sarflanishining nazoratini tashkil etilishi bilan bog'liq dastlabki ko'nikmani shakllantiriladi.

<i>O'qitish usullari</i>	Ma'ruza, muammoli usul, munozara, birgalikda o'qish, baxs
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, ko'rgazmali materiallar
<i>O'qitish sharoiti</i>	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli Yozma nazorat: test

Muammoli ma'ruzani texnologik kartasi

Ishlash bosqichla-ri, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	<p>1.1. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, bugungi mavzuning o'quv kursidagi o'rnini belgilaydi.</p> <p>1.2. Oldingi mashg'ulotda ko'rib chiqilgan masalalar va yechimlarini eslatadi.</p> <p>1.3. O'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyatining natijalarini aytadi.</p>	Tinglashadi.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1. Mashg'ulotda yechiladigan muammoga talabalarni «Kiritadi» va uni shakllantiradi (Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida aholi ijtimoiy himoyasiga kiritiluvchi xarajatlar zarurligini asoslash lozimligi).</p> <p>2.2. Keyingi ish munozara shaklida o'tishini e'lon qiladi.</p> <p>2.3. Muammoni yechishni tashkil qiladi. Aholini ijtimoiy himoyasi xarajatlari mohiyati va mazmunini tahlil qiladi.</p> <p>2.4. Muammoni yechish usullarini topishni tashkil qilishga o'tadi: birinchi muammo osti muammoni shakllantiradi, so'ngra muammoli savollarni qo'yish va ularga berilgan javoblarni muhokama qilish bilan talabalarni uni yechish usulini topishga olib keladi: birinchi oraliq xulosaga. SHunga o'xshab keyingi muammo osti muammolarni yechish usullarini topish jarayonini tashkil qiladi.</p>	Muammoni yozishadi.

	<p>Talabalar bilan tahmin qilingan yechimlarni munozara qiladi va ularda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi.</p> <p>2.5 Mashg'ulotni tashkil qilish uchun qo'shimcha savollar va xulosalar va ko'rgazmali materiallardan foydalanadi.</p> <p>Muammo bo'yicha yakuniy xulosani shakllantiradi.</p>	Savollarga javob berishadi.
3-bosqich. Yakuniy (15 daqiqa)	<p>3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq: testlarga yozma ravishda javob berish.</p>	Topshiriqni yozishadi.

Qo'shimcha savollar va xulosalar

Muammoni shakllanishi: Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash qanday ahamiyat kasb etmoqda va bu O'zbekiston iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini qanday minimallashtirishda qanday ahamiyatga ega?

Echiladigan muammo osti muammolari:

1. Ijtimoiy himoyalashning yo'naltirilgan mablag'larining tarkibi qanday?

Bilimlarni jonlashtirish.

1.1. **Ijtimoiy himoyaning zarurligi?**

1.2. Ijtimoiy himoyalashda davlat byudjetining roli nimada ifodalanadi?

Xulosa. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida aholi ijtimoiy himoyasining oqilona tashkil etilishi byudjet mablag'larining samarali ishlatilishi va harakatchanligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, aholi farovonligini oshiradi, fuqarolarning davlat bo'lgan ishonchini

mustahkamlaydi, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamni inqirozning salbiy ta'siridan himoya qiladigan to'siq va himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy xarajatlar tarkibi qanday?

Bilimlarni jonlashtirish.

2.1. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi qanday va nimalardan iborat?

2.2. Aholini ijtimoiy himoyasi orqali qanday vazifalar yechiladi?

Xulosa. Bolali oilalarga nafaqalar, ijtimoiy nafakalar, ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash, turli imtiyozlar, kam ta'minlanganlik byuicha nafaqalar

Jahon moliyaviy inqirozi ta'siriga qarshi turish choralaridan biri bolali oilalarga nafaqalar, ijtimoiy nafakalar, ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash, turli imtiyozlar, kam ta'minlanganlik byuicha nafaqalar uchun xarajatlarni oqilona tashkil etish bo'lib, bilan byudjet xarajatlarning tejalishiga erishiladi.

3.3. Amaliy mashg'ulotda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish

Ta'lim berish texnologiyasi modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	Talablar soni: 20 – 30 gacha
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoyasida ahamiyati 2. Respublika va mahalliy byudjetdan ijtimoiy xarajatlar tarkibi 3. Davlat byudjetidan ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan xarajatlar tahlili 4. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan davlat dasturlarini moliyalashtirish 5. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'larni sarflanishida g'aznachilik tizimining o'rni 6. Ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'lar sarflanishining nazoratini tashkil etish

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • mavzu bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va kengaytirishga motivatsiya yaratish; • mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; • axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish, solishtirish va umumlashtirish bo'yicha ko'nikmalar ishlab chiqish; • mavzu savollari bo'yicha izohlash va shakllantirish jarayonini tashkil qilish. 	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar tannaxga kiritiluvchi moddiy xarajatlar hisobi va auditi bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar
<i>O'qitish usullari</i>	Guruhlarda ishlash, taqdimot, grafik organayzer
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, individual.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, grafik organayzerlar.
<i>O'qitish sharoiti</i>	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob shakli

Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

Ishlash bosqichla-ri, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Mavzu ga kirish (10 daq.)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, muhokama uchun savollar, ko'zlanayotgan natijalar va mashg'ulotni olib borish xususiyatlarini ma'lum qiladi. Eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib bo'lishini e'lon qiladi. Guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (65 daqiq)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi. O'quv topshirig'ini tarqatadi (2-ilova). Ko'zlanayotgan qanday o'quv natijalariga ega bo'linishini aniqlaydi. Ish tartibi va reglamenti, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tushuntiradi (3-ilova). 2.2. Guhlarda ish boshlanganligini ma'lum	O'quv topshiriqlari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.

	<p>qiladi. Kuzatuvchi sifatida guruh ishini nazorat qiladi, alohida ishlarni tashkil qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi, ochiq savollar beradi: "Nima uchun xuddi shunday...?", Sizingcha eng yaxshisi qanday?"</p> <p>2.3. Guruhlarga jadval savollarini bo'lib tashlaydi, har bir guruhga bitta savolga javob berishni taklif qiladi. Jadvalning 4 savoli bo'yicha barcha guruhlar o'zlarining javob variantlarini berishlarini so'raydi.</p> <p>O'quv natijalarini sharhlaydi, topshiriqni bajarish jarayonidagi qilingan alohida xulosa, umumlashtirishlarga ahamiyat beradi va guruhlarini o'zaro baholashlarini tashkillashtiradi.</p>	<p>Guruh a'zolari jadval to'ldiradilar.</p> <p>O'quv topshirig'i bo'yicha guruhli ish natijalarini ifodalaydilar va taqdimot varoqlarini rasmiylashtiradilar. Taqdimotga tayyorlanadilar.</p> <p>Berilgan savol bo'yicha guruh faollari taqdimot qiladilar va boshqa guruhlar a'zolari javobni to'ldiradilar.</p> <p>O'zaro baholaydilar.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (5 daqiqa)</p>	<p>3.1. Guruhlarning o'zaro baholashning yakunini chiqaradi, o'quv faoliyat natijalarini tahlil qiladi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

Guruhlarda ishlash qoidasi

- SHerigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondoshing.
- Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat kiling.
- Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orkali o'zimiz o'rganamiz;

O'quv topshirig'i

1. Avval olingan bilimlarni qo'llab, jadvalni to'ldiring.
2. Savollar bo'yicha birga taqdimot qiling (1-3)

Ish tartibi va reglamenti

1. Guruhlarda ishlash - 20 daqiqa.
2. Taqdimot - 10 daqiqa.
3. Jamoaviy muhokama va o'zaro baholash – 15 daqiqa

O'quv faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruhlar	Savol yoritilishining to'liqligi (5 ball)	Javoblarga boshqa guruhlarning to'ldirishi (0,5 balldan)	Bashorat varianti (2 ball)	Umumiy ball
1				
2				
3				

Xulosa

Ijtimoiy himoya-o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan fuqarolarga beriladigan nafaqalardir. Bu harajatlar soliq tushumidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy himoya yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish faoliyatidagi ishtirokidan qat'i nazar, aholi ma'lum tabaqalarning turmush darajasini yaxshilash amalga oshiriladi.

Ijtimoiy kafolatlar–jamiyat rivojlanishi va uning fuqarolari turmush darajasining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bozor sharoitida, xodimlar ish joyini yo'qotgan taqdirda, ularga moddiy yordam berish, shuningdek, mumkin qadar tezroq ishga joylashtirish bosh ijtimoiy kafolat hisoblanadi.

Jamiyatning mehnat qilishga qobiliyati bo'lmagan qismini moddiy ta'minlash va tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, bolalarning tug'ilishi va ularga qarash zaruriyati bilan bog'liq nafaqalarni to'lash ham muhim ijtimoiy kafolat hisoblanadi, bu sohada moliya yetakchi rol o'ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiy siyosat–faqatgina kam ta'minlanganlar, o'ziga bog'liq bo'lmagan holda mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganlar, yoshlar va qariyalarni himoya qilibgina qolmasdan, u tabaqalanish jarayonini yumshatadi, siyosiy barqarorlikka kafolat beradi. Adolat tamoyillariga asoslangan holda, ijtimoiy siyosat jamiyatdagi turli sohalar va munosabatlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlaydi.

Ijtimoiy himoya tamoyili asosida aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida **maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish** masalalariga katta e'tibor qaratildi. Masalan, faqatgina «Homiylar va shifokorlar yili» dasturida ko'zda tutilgan tadbirlar ijrosi uchun qariyb 284 mlrd. so'm, jumladan, 133 mlrd. so'm byudjet mablag'i, 151 mlrd. so'mdan ziyod idora va tashkilotlar, homiylar mablag'i sarflangani ham shundan dalolat beradi.

«Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida barcha manbalar hisobidan jami 483600 mln. so'm, jumladan, 213200 mln. so'm byudjet mablag'i, 270400 mln. so'm miqdorida grantlar, ijrochilar hamda homiylar mablag'i sarflandi;

- 15 ta maxsus maktab-internat va «Mehribonlik» uylarida jami 4800 mln. so'mlik qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi;

- davlat byudjetidan 4600 mln. so'mga yaqin mablag' sarflanib, 28 ta «Mehribonlik» uyi hamda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatga 114 ta zamonaviy avtobus, 4 ta oilaviy bolalar uyiga «Damas» mikroavtobusi berildi;

- yosh oilalarning muammolarini yechish, avvalo, uy-joy sotib olish va imorat qurish, ro'zg'orni butlashga ko'maklashish maqsadida tijorat banklari tomonidan 57500 mln. so'mlik ipoteka va iste'mol kreditlari ajratildi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoniga muvofiq aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, barcha ijtimoiy muassasalar xodimlari mehnatiga haq to'lashni yaxshilash, ularning moddiy-texnika bazasini tubdan mustahkamlash maqsadida Davlat byudjeti hisobidan qo'shimcha ravishda yiliga 31,5 milliard so'm ajratilmoqda. 2007 yilda O'zbekistonda ijtimoiy maqsadlar uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmi barcha byudjet xarajatlarining 55 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkichni deyarli 60 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bevosita kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun esa byudjetning 10,4 foiz qismi (1431,9 milliard so'm) sarflanadi. Bu ko'rsatkich ushbu maqsadlar uchun xarajatlar umumiy byudjetining 2 foizdan 5 foizgachasini tashkil etadigan MDHning boshqa davlatlari va dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqoridir.

So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2009 yilda

2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

Aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari - tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

- ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi;

- uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega

Hozirgi paytda respublikamizda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

1. Bolali oilalarga nafaqalar: - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa; • bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; - bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa; - Voyaga yetmagan bolalari bor oilalarga nafaqa.

2. Ijtimoiy nafaqalar: - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga; - ish staji yo'q qariyalarga; - boquvchisini yo'qotgan oilalarga.

3. Ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash: - qariyalar va nogironlar uylari; - mehribonlik uylari - kasalmand bolalar uchun internatlar.

4. Turli imtiyozlar: - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish; - sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash; - protezlash; - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar.

5. Kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar: - ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan: - bolali oilalarga nafaqalar; - keksalar va nogironlar uyidagilarni boqish va xizmat ko'rsatish; - nogironlarni mehnatga o'rgatish, ishga joylash, protez qo'yish; - CHernobil' AESdagi falokatda qatnashganlarga, nogironlarga moddiy yordam beriladi.

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mahalla tizimi orqali byudjetdan moliyalashtirish quyidagi asosiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turlari amalga oshiriladi: kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar, bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ota-ona

qarovsiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar.

Kam taʼminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va toʻlanadi. Kam taʼminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar respublika byudjeti mablagʻlari, mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) byudjet mablagʻlari va byudjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamgʻarmalari, korxonalar va xoʻjaliklarning mablagʻlari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar) mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladi. Mablagʻlar qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari oʻzini - oʻzi boshqarish organlarining jamgʻarma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus schyotlariga oʻtkaziladi va olib qoʻyilmaydi.

Aholi oʻrtasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, sogʻlom bola tugʻilishi, jismoniy va maʼnaviy barkamol avlodni shakllantirish, oilada erkaklar masʼuliyati, oila muqaddasligi kabi qadriyatlarni tushuntirish va targʻib etish borasidagi ishlarni yuqori pogʻonaga koʻtarish maqsadida Maxsus jamoatchilik kengashi faoliyati tashkil etildi.

Oʻzbekiston barcha rivojlangan davlatlar qatori Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan boʻlib “Onalikni muhofaza qilish” kabi oʻnlab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

CHaqaloqlar va 5 yoshgacha boʻlgan bolalar orasida oʻlimni uchdan ikki qismga kamaytirish Oʻzbekiston uchun Mingyillik rivojlanish maqsadlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

I. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: Oʻzbekiston, 2009,-40 b.
2. “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni.- T.:

«O'zbekiston», 14 dekabr 2000 yil, -43 b.

3. «Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: «O'zbekiston», 26 avgust 2004 yil.

4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T.: O'zbekiston, 25 dekabr 2007 yil, 263- b.

5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tug'risida»gi Qonuni, 1997 yil 29 avgust,

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 2009 yil 22 dekabrda 1245-sonli qarori

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qarori

8. «O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda 744-sonli qarori

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007 yil 28 fevralda PQ-594 sonli qarori

10. «Barkamol avlod yili» davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O'zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so'zi. -2009. - № 238. – mo dekabr. – 1 b.

11. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 26.01.2009 y. N PQ-1046

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining «2010 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi to'g'risida»gi 2009 yil 29 oktyabrda 1082-I-sonli Qarori

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi davlat byudjeti to'g'risida»gi 895-I sonli Qarori 11 noyabr 2008 y.

14. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tasnifi, xarajatlarini funktsional va iqtisodiy tasniflari hamda byudjetlar mablag'lari manbalari va bo'g'inlari tasnifi. (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 15 mayda 80-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 24 dekabrda SB/03-04-04/901-sonli «2008 yilning yanvar oyi o'tgan moliya yili uchun qo'shimcha davr deb e'lon qilinishi» xati

16. «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 1999 yil 3 sentyabr.

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi davlat byudjeti to'g'risida»gi 895-I sonli Qarori 11 noyabr 2008 y.

18. Davlat byudjetining g'azna ijrosi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.:«KO'HI-NUR» MCHJ., 2006 y.

19. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. 1,2,3-jildlar.- T.: O'zbekiston, 2002.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

20. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir - T.: O'zbekiston, 2010 yil, 80 b.

21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T.: O'zbekiston, 2009 y.- 56 b.
22. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Xalq so'zi., 2009 yil 14 fevral
23. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Halq so'zi" gazetasi №28(4438)- soni. 9 fevral, 2008 yil
24. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2007 yil. 48 b.
25. Karimov I.A. Yangilash va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamiz. O'zbekiston ovozi., 2007 yil 13 fevral.
26. Karimov I. A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 11 fevral.
27. 1. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvarь.
28. 2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvarь.
29. 3. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabrь.
30. 4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
31. 5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevralь.
32. 6. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
33. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar

V. Darsliklar

34. Vahobov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvennyy byudjet: Uchebnik T., «Iqtisod-moliya», 2006, 625 s.
35. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. Под. ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – М.: «ИД Юрайт», 2010. – 714 с.
36. Seleznev A.Z. Gosudarstvennyy dolg i vneshnie aktivы. – М.: INFRA-M, 2010.
37. V.V.Kovaleva. Финансы. Учебник, -М.: Просpekt, 2008.
38. Godin A. M., Maksimova N.S., Podporina I.V. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – 3-e izd., ispr. i dop. – М.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov

i K°», 2006, – 568 s.

39. Neshitoy A.S. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – 5-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006, – 308 s.

40. Финансы бюджетных организаций: Uchebnik / pod red. prof. Polyaka G.B. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006. - 363s.

41. Polyak G.B. Финансы бюджетных организаций.- M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006, - 417 s.

42. Lushin S.I., Slepov V.A. Gosudarstvennye i munitsipal'nyye finansy. –M.: Ekonomist, 2006, - 317 s.

43. Printsipy organizatsiya kaznacheyskogo ispoleniya Gosudarstvennogo byudjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. Pod.redaktsiey D.J.Kuchkarova – T.: Mir ekonomiki i prava. 2005 y.

44. Yaxyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti.- T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003, - 164 b.

45. Babich A. M. Gosudarstvennye i munitsipal'nyye finansy. - M.: Finansy, YuNITI, 2000.

VI. O'quv qo'llanmalar

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish–ustuvor maqsadimizdir» hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G’afurov – T.: Iqtisodiyot, 2010.-331 b.

47. Xodiev B.Yu. va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009 y.

48. Tuxliev B.K.,Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J., Bijanova M.B. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma.-T: TDIU, 2010.199 b

49. Tuxliev B.K., Alieva L.K., Aliev S.K. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: O'quv qo'llanma – T.: TDIU., 2007. – 144 b.

50. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. 98 b.

51. Malikov T., Xaydarov N. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2007, 84

52. Bauetdinov M.J., Bijanova M.B. «Davlat byudjeti» fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua. «Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. –T.: TDIU, 2010, 286 b.

53. Bauetdinov M.J., Bijanova M.B. «Davlat byudjeti» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. «Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. –T.: TDIU, 2010, 268 b.

54. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. –T: Iqtisod-moliya. 2005, 624 b.

55. Kuchkarov D.J., Printsipy organizatsii kaznacheyskogo ispoleniya Gosudarstvennogo byudjeta Respubliki Uzbekistan. Uch.pos. –T.: Mir ekonomiki i prava. 2005, 138 s.

56. Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya. 2007. 275 b

57. Qosimova G.A. G'aznachilik faoliyatini tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod - moliya», 2005, 248 b.

58. Vaxobov A., Srojiddinova Z. Uzbekiston Respublikasi davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya. 2002.

59. Vaxobov A., Kosimova G., Jamolov X. Byudjet-solik siyosati yaxlitligi, O'quv qo'llanma, - T.: Iktisod va moliya. 2005.
60. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Finansy. –T.Izdatel'skiy dom «Tasvir», 2008, 276 s.
61. Kuptsov M.M Finansy: Ucheb. posobie.- 4-e izd., - M.: RIOR, 2008.-113.
62. Bodi, Zvi, Merton, Robert. Finansy.: Per. s angl.: Uch. Pos.- M.: «Vilyams», 2008.
63. Finansy i kredit : uchebnoe posobie / kol. avtorov ; pod red. O.I. Lavrushina. - M. : KNORUS, 2008. - 304 s
64. Finansovaya matematika. Matematicheskoe modelirovanie finansovykh operatsiy: Ucheb posob. Pod red. V.A. Polovnikova i A.I. Pilipenko. – M.: INFRA-M, 2010 – 360 s.
65. Markina Ye.V, i dr. Byudjetnoe ustroystvo i byudjetnyy protsess. Uchebno-metodicheskiy kompleks. Dlya studentov, obuchayushixsya po spetsial'nost' «Finansy i kredit» / Pod red. Ye.V. Markinoy. – M.: Finakademiya, kafedra, «Finansy», 2009. - 77 s.
66. Kuptsov M.M Finansy: Ucheb. posobie.- 4-e izd., - M.: RIOR, 2008.-113.
67. Kovalevoy A.M. Finansy: Uchebnoe posobie.– M.: Finansy i statistika, 2008. - 416s.
68. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida “Keys-stadi” uslubining qo'llanilishi.–T.: Akademiya, 2006, - 645b.
69. Bekmurodov A. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1,2,3,4,5-qismlar. Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida.- T.: TDIU, 2006. – 66 b.
70. Modeli finansirovaniya vuzov: analiz i otsenka. / Pod red. S.A. Belyakova. - M.: IEPP, 2005, - 282 s.
71. Bol'shaya ekonomicheskaya slovar'. –M.: Eksmo, 2007.- 816 s.
72. Otrasevyye, sektoral'nyye i regional'nyye osobennosti reformy byudjetnykh uchrejeniy v Rossii. – M.: IEPP, 2005, – 463 s.
73. Tuxliev B.K., Yusupov O.A. Agzamov A.T., Tuxsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: 2007 – 320 b.
74. Ulyukaev A.V. Problemy gosudarstvennoy byudjetnoy politiki: Nauch. Prakt. Posobie. – M.: Delo, 2004, – 544 s.
75. Gadoev E.F., Qurbonov X.A. Bauetdinov M. J. Moliya. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 189 b.
76. Alimardonov M.I., To'xсанov Q.N. Soliq nazariyasi. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.
77. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayoni. - T.: Quvasoy, 2003, - 26.
78. Gadoev E. Uchet i nalogooblojenie osnovnykh sredstv i nematerial'nykh aktivov. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2003, - 199 s.
79. Yandiev M.I. Finansy regionov.-M.:Finansy i statistika, 2002.-240.
80. Vaxobov A., Jamolov X. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlash-tirish. - T.: TMI, 2001, - 244 b.
81. Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

82. Investitsii respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2009. – 148 s
83. «O'zbekiston iqtisodiyoti Axborotnomasi» jurnali.

VIII. Internet saytlari

84. <http://www.uz>
85. <http://wwwparliament.gov.uz>
86. <http://www.gov.uz>
87. <http://www.press-service.uz>

88. <http://www.mineconomy.cc.uz>
89. <http://www.mf.uz>
90. <http://www.tresure.uz>
91. <http://www.stat.uz>
92. <http://www.soliq.uz>
93. <http://www.gtk.uzsci.net>
94. <http://www.edu.uz>
95. <http://www.tsue.uz>
96. <http://bfa.re.uz>
97. <http://www.tfi.uz>
98. <http://www.glossary.ru>
99. <http://www.budgetrf.ru>
100. <http://www.lex.uz>